

YASHIL

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEKNOLOGIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI


2
0
2
4

MAQOLALAR TO'PLAMI

MAXSUS SON
Iyun-iyul



Digital
Object
Identifier



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Mas'ul muharrir:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'ZR Tabiat resurslari vazirligi, O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

“ZAMONAVIY IQTISODIYOTDA YUQORI MUHANDISLIK TEXNOLODIYALARINI ILMIY-AMALIY JORIY ETISH INNOVATSION TARAQQIYOT POYDEVORI”

MAVZUSIDAGI ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI





YOSHLARNI TOLERANTLIK RUHIDA TARBIYALASHDA AHMAD DONISHNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI TAHLILI

A.Q. Saloxov

Buxoro muhandislik texnologiya instituti
Paxta va yengil sanoat texnologiyalari fakulteti
Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy
ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar tolerantligini shakllantirishda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarni amalga oshirish jarayonida Ahmad Donish g'oyalaridan foydalanishning nazariy-uslubiy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tolerantlik, taraqqiyot strategiyasi, xalqparvar davlat, kechirimlilik, sabr-toqat, jadidchilik.

Abstract: This article analyzes the theoretical and methodological aspects of using the ideas of Ahmad Donish in the process of implementing the goals specified in the development strategy of New Uzbekistan on the formation of youth tolerance.

Key words: tolerance, development strategy, people-friendly state, forgiveness, patience, jadid.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретико-методологические аспекты использования идей Ахмада Дониша в процессе реализации целей, указанных в стратегии развития Нового Узбекистана по формированию толерантности молодежи.

Ключевые слова: толерантность, стратегия развития, дружественное к людям государство, прощение, терпение, джадид.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi bu – yosh avlodni har tomonlama dunyoviy va diniy bilimlarga ega bo'lishi, ma'nan yetuk, mustaqil fikrlaydigan, bilimli, barkamol shaxslarni jahon ta'lim standartlariga mos ravishda tarbiyalash dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanganligidadir.

Jahon ilm-fanida bag'rikenglikni shakllantirishning innovatsion usul va vositalarini ishlab chiqishda ma'naviy merosdan oqilona foydalanishga oid fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashab ijod qilgan Buxoro ma'rifatparvarlari tomonidan vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik ruhidagi falsafiy qarashlarini hozirgi kunda yoshlar qalbi va ongiga yetkazish hamda ularning ta'limotida tolerantlik madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ahmad Donishning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalash masalasida katta ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari va qarashlari zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida muhim o'rin egallab, hozirgi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. O'zbekistonlik olimlar Ahmad Donishning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlarini chuqur o'rganganlar va uning tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan qarashlarini yuksak baholaganlar.

O. Karimov o'zining "Ahmad Donish va ta'lim-tarbiya masalalari" asarida Ahmad Donishning ilmiy merosini tahlil qilib, uning tolerantlik tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarini o'rgangan¹. Karimovning ta'kidlashicha, Ahmad Donishning fikrlari yoshlar tarbiyasida tolerantlikni rivojlantirish uchun muhim manba hisoblanadi. U, shuningdek, ta'lim va tarbiya jarayonida ahloqiy qadriyatlarni targ'ib qilishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

S. Raximov tomonidan yozilgan "O'zbekiston ta'lim tizimida Ahmad Donish merosi" asarida Ahmad Donishning ta'lim-tarbiya masalalariga oid qarashlari va ularning bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimidagi ahamiyati keng

1 Karimov O. (2019). Ahmad Donish va ta'lim-tarbiya masalalari. Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti.



yoritilgan². Raximov Ahmad Donishning yoshlar orasida diniy bag'rikenglikni targ'ib qilish va milliy an'analarni saqlash borasidagi qarashlarini yuqori baholaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashni o'rganishda umumiylikdan individuallikka va aksincha tartibda deduksion yoki induksion usullardan foydalanish samara bersa, abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli esa jarayonni tizimli tahlil qilishda ahamiyatlidir. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tolerantlik tafakkurini shakllantirish, uning ijtimoiy, pedagogik jihatlarini tahlil etishga bag'ishlangan ilmiy ishlar mustaqillik yillarida keng rivojlanirildi. Tolerantlik tafakkurini ta'lim tizimining turli bosqichlarida shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o'lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ulkan ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini ta'kidlash lozim. "O'z zamonining ilg'or namoyandalari bo'lgan jadidlar g'oyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va ma'rifat tarqatish, ta'lim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish g'oyasi bilan maydonga chiqdilar".[1]

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra, yoshlar tolerantligi muammosini tarixiy-falsafiy tadqiq etishning nazariy-uslubiy masalalari Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning nutq va ko'rsatmalarida, asarlarida hamda barcha sohada olib borilayotgan islohotlarda o'z aksini topgan.

"2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan maqsadlarida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish, ya'ni xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlashni nazarda tutadi.[2]

Hozirgi kunda dunyoning ayrim hududlarida tobora keskinlashib borayotgan siyosiy ziddiyatlar, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar xavfi bizdan doimiy ogoh bo'lishimizni talab etmoqda. Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz, avvalo, tub negizida "O'zbek xalqiga tinchlik va omonlik kerak" degan g'oya mujassam bo'lgan O'zbekistonning tinchligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy yo'lni izchil davom ettirishimiz lozim. Shuningdek, hozirgi o'ta notinch va murakkab zamonda bebaho boyligimiz bo'lgan tinch va osoyishta hayotni ko'z qorachig'imizdek saqlash, jamiyatimizda millatlar va dinlararo hamjihatlik, o'zaro hurmat va mehr-oqibat muhitini yanada mustahkamlash bizning eng muhim va ustuvor vazifamiz bo'lib qoladi".[3]

Bugungi kunda O'zbekistonning xalqaro maydonda o'z o'rniga ega bo'lib borayotganligi, milliy va umuminsoniy an'analarga hurmat bilan qarash tamoyillarini hayotga tatbiq etish borasida muhim vazifalarning amalga oshirilayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu borada milliy qadriyat sifatida Buxoro jadidlarining ham bag'rikenglik, tinchliksevarlik, murosas-yu madora falsafasiga doir boy falsafiy-axloqiy asarlari ma'naviy-ma'rifiy g'oyalarini o'rganish zarurdir.

Hozirgi kunda Yangi O'zbekiston "Inson qadri ustuvor bo'lgan jamiyat va xalqparvar davlat" degan oliy-janob g'oya asosida barpo etilmoqda. Prezidentimiz belgilab bergan bu ulug'vor maqsad asosida xalqimiz yangidan yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarni (100 maqsad) bajarish va hayotga tatbiq etish, yoshlarimizni bag'rikenglik ruhida tarbiyalash ilm-fan oldidagi muhim mas'uliyatli vazifadir.

Ayniqsa, quyidagi maqsadlar hozirgi kunda eng ahamiyatlidir:

70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish. Yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash.[4]

2 Raximov S. (2020). O'zbekiston ta'lim tizimida Ahmad Donish merosi. Toshkent: Fan va taraqqiyot nashriyoti.



74-maqсад: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash.

Turli millat yoshlari uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, ularda fuqarolik burchini anglash, vatanparvarlik, bag'rikenglikka asoslangan millatlararo muomala madaniyatini yuksaltirish.[5]

XIX asr oxiri XX boshlarida yashab ijod qilgan Ahmad Donish o'z ijodi bilan o'zbek va tojik madaniyatida munosib hissa qo'shgan. "Navodir ul vaqoe" asarida uning jadidlik g'oyalari, zamonaviy fanlar doirasida bilimga ega ekanligi, insonlarning ilmga rag'batini, ilm sabab Buxoro ahlining hayot tarzini yangilash, diniy ta'limni qayta shakllantirish hamda ma'rifat tushunchasida o'z xalqining ijtimoiy hayotidagi asrlar turg'unlikdan xalos bo'lishga undash g'oyalari yetakchilik qilgan.

Bag'rikenglik – bu serqirra fazilatdir. Uning umumiy bir atama kasb etishi uchun o'nlab ijobiy xislatlarni izohlash lozim. Jumladan, kechirimlilik, sabr-toqat, mardlik, ochiqko'ngillik, oliyjanoblik va boshqalardir. Ahmad Donish shu masala atrofida o'z qarashlari orqali bag'rikenglikning ijobiy sifatlarini yoritib bergan. Jadid olim inson fazilatlarining barchasi zahirida ilm, donolik, aql yotadi; himmatlilik, ezgulik, bag'rikenglik, komillik ham ilm ma'rifat negizida shakllanadi, deb biladi.

Ahmad Donish "Navodir-ul-vaqoe" nomli asarni yozib, barcha muammolarni yechish yo'lida shu asarini asosiy qonun sifatida ko'rsatishga uringan. "Navodir-ul-vaqoe" Ahmad Donishning eng yirik asari bo'lib, unda mutafakkirning turli masalalar to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan. Ichki ziddiyatlar, qarama-qarshi qoida-sharhlar ushbu kitobda o'z aksini topgan. Ahmad Donish "Navodir-ul-vaqoe"da goh hayotni kuylaydi, goh umidsizlik, darvishlik ohangida so'zlaydi.

Bag'rikenglik haqidagi g'oyalar Ahmad Donishning "Navodir ul-vaqoe" asarida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilib berilgan. Asarning "Mamlakatni boshqarish va xalqni ma'rifatlilik qilish" haqidagi risolasi uchinchi faslida hukmdorlarning yurtni idora qilish usullari, xalqparvar, bag'rikeng, adolatli bo'lishlari haqida gap boradi. "Podshoh sababsiz hech kimning diliga ozor beruvchi bo'lmasin. Chunki uni xalq o'z tinchligi va erkin yashashi uchun bu darajaga ko'targan. Podshoh ularga ozor berar ekan ish teskariga aylanadi".[6] Albatta, bu holda mamlakatda tinchlik, totuvlik bo'lmaydi, tinchlik va barqarorlik bo'lmagan joyda esa xalq faravon hayot kechira olmaydi. "Podshohlar yetimlarning otalaridir. Shunday bo'lgach podshohlar yetimlarga o'z otalaridan ham ko'proq g'amxo'rlik qilishlari lozimdir; toki podshoh ota bilan faqir otaning farqi bo'lsin. Imkoniyat boricha ehson eshigini ochib tursin" [7] degan fikrlari amaldorlarni bag'rikeng, mehr-oqibatli, mehribon bo'lishga chorlaydi. Donish fikricha, davlat bir guruh kishilarga emas, balki xalq manfaatlarini uchun xizmat qilishi kerak. Mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurdir. Davlatning vazifasi xalq mafaatini himoya qilishdir. Hukmdor mamlakatni idora qilishda atrofdagilari bilan maslahatlashib hal qilish kerak. Demak, odil hukmdor mamlakatni kengash bilan boshqarsa, jamiyatda tartib-intizom o'rnatilib, davlat taraqqiy qiladi.

"Inson nima uchun yaratilgan, yaratilgandan so'ng uning yaxshiligi nimada va u nima xohlashi kerak?", - degan iboralar bilan Ahmad Donish "Navodir ul-vaqoe" kitobining muqaddimasini boshlaydi. Inson, uning umr mazmuni, uning olam va odamlarga munosabati barcha falsafiy qarashlarning diqqat markazida bo'lgan. "Har ishning haqiqatini inson ocha oladi. Inson tana va ruhdan iborat mavjudot bo'lib, uning tuganmas baxti ilm va ma'rifatdadir",[8] – degan fikrni bildirib o'tadi. Ahmad Donish odamlarga qarata o'z qarashlarini ta'kidlab yozadiki, agar uning erki o'zi qo'lida bo'lsa, qaram bo'lmasin, chunki ma'rifat ruhning xohishi bo'lib, ilmsizlik va dangasalik nafsning istagidir. Ruh quvvati yaxshilikka buyuruvchi va yomonlikdan saqlovchidir, nafs quvvati esa yomonlikka yurgizuvchi va yaxshilikdan qaytaruvchidir".[9]

Ahmad Donish ko'rsatib o'tadiki, ota-onalar farzandlarini komil inson qilib tarbiyalay bilsalar, taqdiriga shukrona qiladilar, lekin ular farzandlariga ezgulikni va yaxshilikni ravo ko'rmasalar, o'z g'arazlariga botib qoladilar. Ahmad Donish bilim xususida ham to'xtalib, yo'lni yorituvchi mash'al, shu mash'alga ega bo'lmagan odam esa hayot yo'llarida, albatta, qoqiladi, o'z o'rnini topa olmaydi degan xulosasini beradi. Ahmad Donishning "Nodir voqealar" asari nafaqat o'z davri, balki biz yashab turgan hozirgi kunda ham ma'nani komil insonlarni, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash borasida ham nodir ma'naviy meros hisoblanadi.

Ahmad Donishning farzandlariga bergan maslahatlari:

1. Sidqidildan o'qing. Foydali ilmlarni egallang.
2. Insonlarga kerakli bo'ling, foydali kasb, hunar, mashg'ulot egasi bo'ling.
3. Jamiyat va oila manfaatlarini himoyachisi bo'ling.
4. Shukr va sabr qiluvchi bo'ling.
5. Kechirimli bo'ling.
6. Mustaqil fikrga ega bo'ling.
7. Ajdodlar merosini o'rganing.
8. E'tiqodli bo'ling.

Ahmad Donishning falsafiy asarlarida davlatni boshqarish haqidagi o'zining ijtimoiy falsafiy fikrlarini bayon etadi. Uning fikricha, davlatni adolatli shaxslar boshqarsin va hukumat xazinasini hisobidan ularga haq berilsin. Ahmad Donish bag'rikenglik tamoyillariga amal qilishlikni ta'kidlaydi. Jumladan, davlat boshqaruvini yagona sulolaga boshqaruviga berib bo'lmaydi, degan xulosaga kelib, Ovrupa davlatlaridagi parlament deb ataladigan davlat boshqaruvini tavsiya qiladi.



Mutafakkir fikricha, davlat boshqaruvining muhim vazifasi – o‘z xalqi haqida g‘amxo‘rlik qilishlikdir. Amaldorlar davlat iqtisodiyotining taraqqiy qilishi uchun jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni, jumladan, suv omborlarni qurish, ilm-fanni taraqqiy ettirish, xalqni ma‘rifatli qilishga majburlar, deb ko‘rsatib o‘tadi. Uning bu g‘oyalari hozirgi kunda Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bilan chambarchas hamohangligini ko‘rishimiz mumkin.

Ahmad Donish qo‘shni mamlakatlarga qilgan safarlari vaqtida mahalliy aholi bilan bo‘lgan suhbatlari va o‘zaro muloqotlarida Buxoro amirligida yaxshi qo‘shnichilik aloqalar yo‘lga qo‘yilmaganini ta’kidlab o‘tadi. Uning falsafiy qarashlari muhim ijtimoiy-siyosiy va tarbiyaviy ahamiyatga molik. U yosh avlodni pok vijdonli, sabr-bar-doshli, ma‘rifatli, ilmiy, halol qilib tarbiyalash, ularda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirish masalalarini ilgari surgan. Ahmad Donish yoshlardan himmatli, jasoratli, ezgu niyatli bo‘lishni talab etadi, ularga barcha ishlarni bajarishga ongli ravishda kirishishni maslahat beradi.

Jumladan, himmat haqida fikr yuritar ekan, insonlarni biror mavjudotga ozor yetkazmaslikka, muruvvatli bo‘lishga da‘vat etadi, chunki har bir tanada hayot go‘zalligi mujassamdir. Ahmad Donish bag‘rikenglik g‘oyalari haqida fikr yuritib, nafsga qul bo‘lmaslikni ta’kidlab o‘tadi.

“Navodir ul-vaqoe” asarida bag‘rikenglikning asosiy va muhim jihatlari ko‘rsatib o‘tadi:

- etnik tolerantlik – turli xalqlar qadriyatlarini, an‘analarini hurmat qilish;
- dinlararo tolerantlik – turli diniy e‘tiqod vakillarining murosas bilan yashashi;
- oiladagi tolerantlik – oila a‘zolarining bir-biriga nisbatan mehribon, g‘amxo‘r bo‘lishi.

Ahmad Donishning o‘zi ham bu tamoyillarga amal qilgan, hayot tarzini ilm olishga, o‘z qarashlarini hayotga tatbiq qilishga bag‘ishlagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ahmad Donishning bag‘rikenglikka oid qarashlari hozirgi kunda ham katta ahamiyatga ega. Bag‘riken-glik ruhida tarbiyalangan yoshlar yurt tinchligi, do‘stlik va hamjihatlik, vatan ravnaqi, xalq faravonligi kabi xalqimizning ezgu maqsadlari yo‘lida o‘zlarining salohiyatlarini safarbar etishga intiladilar.

Shu nuqtayi nazardan yoshlarda bag‘rikenglik g‘oyalarini shakllantirish va yuksaltirishda Buxoro jad-idlarning ilmiy merosini o‘rganish va falsafiy tahlil etish bugungi globallashuv davrida muhim vazifalardan biri deb hisoblaymiz. Yoshlardagi ma‘naviy bo‘shliqni to‘ldirish uchun ularni turli tajovuzlardan himoya qilish uchun, avvalo, ularning qalbida Vatanimizga bo‘lgan muhabbatni yanada kuchaytirish, buyuk tariximizni, milliy urf-odat-larimizni qalblariga singdirish zarurdir. Yosh avlodga bag‘rikenglik g‘oyalarini shakllantirish jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Demak, yuqorida bildirilgan fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, yoshlarimizda bag‘rikenglikni shakllantirishdagi tarixiy-falsafiy meros xalqimizning milliy va umuminsoniy qadriyatlari va bugungi kun nuqtayi nazardan ma‘naviy yuksalishini taqazo etmoqda.

Mamlakatimiz rahbarining Oliy Majlisga murojaatnomasida shunday fikrlarni keltiradilar: “Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a‘zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-ma‘rifat, yuksak ma‘naviyat kerak. Ilm yo‘q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to‘g‘ri yo‘ldan adashish bo‘ladi. Sharq donishmandlari aytga-nidek, “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!” [10;].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan xalqaro konf erensiya ishtirokchilariga so‘zlagan nutqi. <https://president.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yil 28-yanvarda “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
3. Sh.M. Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – B. 18-19.
4. O. Karimov . (2019). Ahmad Donish va ta’lim-tarbiya masalalari. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.
5. S.Raximov. (2020). O‘zbekiston ta’lim tizimida Ahmad Donish merosi. Toshkent: Fan va taraqqiyot nashriyoti.
6. <https://lex.uz>
7. F.X. O‘sarov. XIX asr oxiri XX asr ma‘rifatparvarlari hamda jadidlar ijodida tinchlik va bag‘rikenglik falsafasi madaniyati. Buyuk allomalar ijodida ahillik va bag‘rikenglik g‘oyalari. T.: JIDU. 2005. –B. 59-64
8. Ahmad Donish. “Navodir ul-vaqoe”(Nodir voqealar). Toshkent. “Fan” nashriyoti. 1964. –B. 63.
9. Ahmad Donish. “Navodir ul-vaqoe”. Fan, T., 1964. –B. 37.
10. Ahmad Donish “Navodir ul-vaqoe”. Fan. T., 1964. –B. 38
11. <http://m.xabar.uz>



MUNDARIJA

Muhandislar – taraqqiyot tayanchi	4
Sadoqat Siddiqova	
Исследование влияние азотсодержащей добавки на процесс окисления битумов	9
Юлдашев Норбек Худайназарович	
Ziyorat turizmining iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'siriga oid muammolar yechimida terminologiyaning ahamiyati.....	14
Malohat Jo'rayeva, Shavkat Bafoyev	
Ekspluatatsiya davrida kompressor moylarining ishlashi va fizik-kimyoviy xususiyatlari o'zgarishining o'ziga xosligi	19
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich	
Tabiiy gazning oltingugurtli qo'shimchalarining fizik-kimyoviy xossalari tadqiq qilish	24
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Автоматическое формообразование пневматических опалубок бикубическими сплайнами.....	30
Ядгаров Ўктам Турсунович, Ахмедов Юнус, Асадов Шухрат Кудратович	
Optimizing the efficient transport of mass from alternative energy sources and the process of heat and mass exchange during the processing of spices	37
Khayrullo Djurayev Fayzievich, Mizomov Mukhammad Saydulla ugli	
The role of digitalization in regional development and the utilization of their potential for sustainable development	44
Jafarova Khilola Khalimovna	
Разработка новых структур и способов выработки комбинированного трикотажа с повышенной формоустойчивостью на базе интерлочного переплетения	48
Гуляева Г.Х., Мукимов М.М., Каримова Н.Х.	
Кислотная активация навбахорской бентонитовой глины	53
Хужакулов Азиз Файзуллаевич, Хотамов Кобил Ширинбой угли	
Mustaqil ta'limni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish.....	58
Murodova Zarina Rashidovna, Jo'raqulova Mehrangez Orifovna	
Kislorodli birikmalar asosida olingan antidetonatsion kompozitsiyalarning ai-80 avtomobil benzinini detonatsion barqarorligiga ta'sirini tadqiq qilish	66
Saloydinov Aziz Avazovich	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	70
Akramova Obida Qosimovna	
Исследование механико-технологических параметров глубокого рыхления почвы подпахотного горизонта.....	77
Н.С.Бибуттов, Ф.Ю.Хабибов, Ш.М.Муродов	
Разработка экспериментальной установки энергосберегающего измельчителя фруктов и овощей для производства сок с мякотью.....	85
Ф.Ю. Хабибов, Х.Х. Ниязов	
Туризм: типология и классификация.....	95
Малохат Мухаммадовна Жураева, Марупова Гульноз Умарджоновна	
"Yashil energetika"ni rivojlantirishni rag'batlantirishning me'yoriy ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.....	99
Sadullayev Nasullo Ne'matovich, G'afurov Mirzoxid Orifovich, Ne'matova Zuxra Nasullo qizi	
Umumiy ovqatlanish korxonalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishda diversifikatsiyalangan milliy hunarmandchilik mahsulotlaridan foydalanishning ahamiyati.....	108
Ruziyeva Gulinoz Fatilloevna, Raximova Dilorom Sulaymonovna	
Polimerlar ishlab chiqarishda hamda ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan chiqindilardan samarali foydalanish jihatlari	114
Raxmatov Sherzod Shuxratovich, Sadirova Saodat Nasreddinova, Niyozova Rano Najmiddinova, Axmedov Hafiz Ibroimovich	
Kichik quvvatli, energiya samarador shamol turbinalari ko'rsatkichlarining tahlili.....	118
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, M.Sh. O'ktamov	



Анализ ингредиентов пищевых продуктов с помощью нейронной сети	127
Мухамадиева Зарина Баходировна	
Dizel moylarini reologik xossalari tatqiq qilish	132
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Toshov Mavzuddin Sa'dullo o'g'li	
Анализ состав и свойства нефтяных остатков и битумов	136
Юлдашев Норбек Худайназарович, Махмудов Мухтор Жамолович, Комолов Руслан Илхомбекович	
Kambag'allikdagi tarkibiy o'zgarishlarning aholi turmush farovonligi darajasiga ta'sirining ahamiyati	141
Xayitov Sherbek Naimovich	
Maxsus kiyimlar tikishda foydalaniladigan gazlamalar tahlili	148
Sayidova MaftunaHamroqul qizi	
Production of tomato paste	153
Ergasheva Muhabbat Komil kizi	
Problems of development of research and innovative activities in higher educational institutions	156
Rakhimova Dilnoza Davronovna, Alimova Ruxsora Xamzayevna	
O'zbekiston mehnat bozorida bandlikning innovatsion turlarini shakllantirish va rivojlantirish omillari	159
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna	
Dual ta'limda keys texnologiyasini qo'llash	166
Sariyev Rustam Bobomuradovich	
Mintaqada bank-moliya tizimini rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslari	169
Jumayev Bahodir Raxmatullayevich	
Chiqindi AKM katalizatorlardan kobalt va molibdenni ajratish usuli	174
Tursunova F. J., G. R. Bozorov	
Hududlarning mutanosib barqaror rivojlanishini ta'minlash imkoniyatlari (ijtimoiy rivojlanish va yo'nalishlar)	180
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
Sanoat korxonalarining investitsiya faoliyatini samarali boshqarish muammolari	185
Kudratov Muhammad Rustamovich	
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish	190
Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li	
Mintaqada barqaror rivojlanishni ta'minlashda raqamli texnologiyalarning o'rne	194
Jafarova Hilola Xalimovna	
Nordon gazlarni aminli tozalash jarayonida ko'pik so'ndirgichlarning kimyoviy ta'sir mexanizmi	198
Muxtor Jamolovich Maxmudov, Ramazonov Bahrom G'afurovich	
Uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili	207
Abduraxmonov Olim Rustamovich, Islomov Alisher Nurillayevich	
Iqtisodiyotdagi innovatsion o'zgarishlar sharoitida kambag'allikni qisqartirish orqali aholi farovonligini oshirish	213
Amrulloev Dadaxon Nurmat o'g'li	
Atrof-muhitga zararsiz, tabiiy tarkibli korroziya ingibitorlari turlarini tahlil qilish	217
Buxoro viloyatida kambag'allikni bartaraf etish va bandlikni oshirish yo'nalishida hududlar kesimida mavjud imkoniyatlar tahlili	223
Musulmonova Shahlo Nasriddinovna	
Neft va gaz sanoati chiqindilarining atrof-muhitga salbiy ta'sirlarini tahlili	229
Ochilov Abduraxim Abdurasulovich, Uzakbaev Kamal Axmet uli, O'rinov Xurshid Xayridin o'g'li	
Blokcheyn tizimlarida kriptografik kalitlar uchun tasodifiy sonlarni generatsiyalovchi SuperCSPRNG algoritmi	235
Nurullayev Mirxon Muhammadovich	
"Yashil" energetikaning o'zbekiston iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirlarini baholash va ularni tahlil qilish	241
I.I. Xafizov, F.F. Muzaffarov, A.Y. Baqoyev	
Buxoro viloyatida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish istiqbollari	247
Xakkulov Eldar Xudoyberdiyevich	
Chiqindi gazlarni changli qo'shimchalardan tozalash	251
Rayimov Zuhridin Xayridin o'g'li, Sattorova Gulnoza Tuymurodovna, Jamilova Niginabonu Qobil qizi, Qudratov Oston Hayrulla o'g'li	



Kremniyorganik polimer kompozitsiyalar asosida termobarqaror bo'yoq olish imkoniyatlari.....	255
Xoliqova Gulhayo Qo'ldoshevna, Raximov Firuz Fazlidinovich, Nurilloev Zafar Ismatilloevich	
Korroziya ingibitorlarini neft va gaz quduqlariga samarali qo'llash	260
Atoyev Extiyor Xudoyorovich, Jo'rayeva Dilsora Shodmonovna	
Qo'ndirmali transformator moylarining kolloid barqarorligini baxolash	264
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich, Raximov Zaxriddin Zafar O'g'li	
Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini baholash	270
Akramova Obida Qosimovna	
Yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashda ahmad donishning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari tahlili	277
A.Q. Saloxov	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.